QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*2021- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA‘LUMOT)*

Sanoat statistikasi bo’limi
Tel.: 61-222-75-87

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2021- yil yanvar-iyun)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan 8297,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (85,9 %)ni tashkil etdi.







***B****–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,9 % ga hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 36,7 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 4,0 % ga o‘sishi kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 89,1 % ga pasayishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da







## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

| Ohah tosh | Gaz kondensati | Tabiiy gaz |
|---|---|---|
|  |  |  |

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 144,3 | 88,2 | -56,1 |
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 1368,1 | 1028,5 | -339,6 |
| Gaz kondensati, ming t. | 55,2 | 49,6 | -5,6 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7128,1 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**, *% da*






O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2020- yilning yanvar-iyun oylarida – 1,6 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 66,8 % (63,1 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 3,5 % (4,0 %) va quyi texnologiyalisi – 28,0 % (31,3 %)ni tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 1881,1 ming litr aroq (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 31,0 % ga), 7,3 ming tonna kalava ip (2,2 % ) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’ati kuzatildi. Shuningdek, 46,1 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (0,9 % ), 122,1 ming tonna portlandsement (16,2 %), 27,4 ming tonna paxta chigiti (36,2), 3,9 ming tonna tozalangan o‘simlik yog‘i (44,0 %) va 1,2 ming tonna tozalangan guruch (74,0 %) ishlab chiqarilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

### O‘simlik yog‘I (tozalangan)




### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




### Sement




### Aroq




### Paxta chigiti




### Kalava ip




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Paxta tolasi,** ming t. | 26,5 | 17,3 | -9,2 |
| **Aroq,** *ming litr 100 % li spirt* | 1435,8 | 1881,1 | 445,3 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *ming t.* | 7137,0 | 7293,4 | 156,4 |
| **Polietilen,** *ming t.* | 181,1 | 173,1 | -8,0 |
| **Polipropilen,** *ming t.* | 49,8 | 48,1 | -1,7 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida kimyo sanoati ulushi 53,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 168,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo sanoatining ulushi 56,9 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 14,8 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 4719,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 135,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,3 % ga o‘sdi va ishlab chiqarish hajmi 192,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 82,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,1 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 910,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 64,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 32,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 79,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 106,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni, fizik hajm indeksi 24,7 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 879,1 mlrd. so‘mni tashkil etd.




## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(2021- yil yanvar-iyun oylarida)*




2020- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 68,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % fizik hajm indeksi 103,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 45,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

# Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1082,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (13,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 36,7 % ga oshganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-iyun | 2021- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 2065,7 | 2454,5 | 388,8 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 19,4 | 36,7 | 17,3 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 43878,4 | 57289,7 | 13411,3 |

# Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da***







| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-may | 2021- yil yanvar-may | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transporttirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 2859,6 | 3551,0 | 691,4 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar**, *mln. so‘m* | 5555,9 | 8021,3 | 2465,4 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 18967,2 | 29054,1 | 10086,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 53,2 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 24,2 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 44,4 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1229,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,2 % (2020- yil yanvar-iyun oylarida 4,7 %) ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 22,5 % ni, shuningdek, To'rtko'l tumani 8,4 % ni, Taxiatosh tumani 7,9 % ni, Ellikqal'a tumani 7,6 % ni, Beruniy tumani 7,2 % ni, Qo'ng'irot hamda Xo'jayli tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (102,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bo'zatov (132,0 %), Taxtako'pir (124,2 %), To'rtko'l (121,0 %), Mo'ynoq (118,1 %), Amudaryo (110,7 %) hamda Kegeyli (110,2 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 1229,6 | 100 | 102,7 |
| Amudaryo | 76,4 | 6,2 | 110,7 |
| Beruniy | 89,0 | 7,2 | 100,2 |
| Bo‘zatov | 6,8 | 0,6 | 132,0 |
| Qonliko‘l | 69,6 | 5,7 | 102,6 |
| Qorao‘zak | 23,5 | 1,9 | 107,5 |
| Kegeyli | 34,7 | 2,8 | 110,2 |
| Qo‘ng‘irot | 85,6 | 7,0 | 100,1 |
| Mo‘ynoq | 21,3 | 1,7 | 118,1 |
| Nukus t. | 21,5 | 1,8 | 100,2 |
| Taxiatosh | 97,3 | 7,9 | 100,0 |
| Taxtako‘pir | 57,5 | 4,7 | 124,2 |
| To‘rtko‘l | 103,8 | 8,4 | 121,0 |
| Xo‘jayli | 86,0 | 7,0 | 79,6 |
| Chimboy | 67,0 | 5,5 | 103,8 |
| Shumanay | 18,6 | 1,5 | 100,4 |
| Ellikqal'a | 93,9 | 7,6 | 102,4 |
| Nukus sh. | 277,1 | 22,5 | 100,6 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 29,1 %, shuningdek, Ellikqal’a tumani 12,2 %, Xo‘jayli tumani 8,2 % ni, Amudaryo tumani 8,0 % ni, Qo‘ng‘irot tumani 7,8 % ni, To‘rtko‘l tumani 7,1 % ni, Beruniy tumani 6,9 % ni hamda Chimboy tumani 5,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika (112,7 %) o‘sish sur’atidan yuqori ko‘rsatkich To‘rtko‘l (169,7 %), Shumanay (159,2 %), Amudaryo (147,0 %), Ellikqal’a (145,1 %), Taxtako‘pir (130,5 %), Qorao‘zak (127,9 %), Bo‘zatov (122,1 %) tumanlarida va Nukus shahar (129,8 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 478,3 | 100 | 112,7 |
| Amudaryo | 38,5 | 8,0 | 147,0 |
| Beruniy | 32,8 | 6,9 | 86,4 |
| Bo‘zatov | 1,0 | 0,2 | 122,1 |
| Qonliko‘l | 13,5 | 2,8 | 116,2 |
| Qorao‘zak | 12,3 | 2,6 | 127,9 |
| Nukus t. | 5,3 | 1,1 | 74,6 |
| Taxiatosh | 3,5 | 0,7 | 50,8 |
| Taxtako‘pir | 10,6 | 2,2 | 130,5 |
| To‘rtko‘l | 34,1 | 7,1 | 169,7 |
| Xo‘jayli | 39,0 | 8,2 | 81,9 |
| Chimboy | 23,9 | 5,0 | 102,5 |

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Kegeyli | 20,1 | 4,2 | 102,9 |
| Shumanay | 6,7 | 1,4 | 159,2 |
| Qo‘ng‘irot | 37,4 | 7,8 | 77,9 |
| Ellikqal'a | 58,1 | 12,2 | 145,1 |
| Mo‘ynoq | 2,3 | 0,5 | 38,8 |
| Nukus sh. | 139,2 | 29,1 | 129,8 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,4 %, shuningdek, Taxiatosh 12,5 % ni, To‘rtko‘l 9,3 % ni, Beruniy hamda Qonliko‘l 7,5 % ni, Qo‘ng‘irot 6,4 % ni, Taxtako‘pir hamda Xo‘jayli 6,2 % ni tumanlari tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Mo‘ynoq (156,4 %), Bo‘zatov (134,0 %), Qo‘ng‘irot (128,3 %), Taxtako‘pir (122,9 %), Kegeyli (122,0 %), Nukus (112,9 %), Beruniy (110,4 %), To‘rtko‘l (106,2 %) tumanlarida qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 751,3 | 100 | 97,3 |
| Nukus t. | 16,2 | 2,2 | 112,9 |
| Amudaryo | 37,9 | 5,0 | 88,5 |
| Taxiatosh | 93,8 | 12,5 | 103,8 |
| Beruniy | 56,2 | 7,5 | 110,4 |
| Taxtako‘pir | 46,9 | 6,2 | 122,9 |

| Tuman | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Bo‘zatov | 5,8 | 0,8 | 134,0 |
| To‘rtko‘l | 69,7 | 9,3 | 106,2 |
| Qonliko‘l | 56,1 | 7,5 | 99,7 |
| Xo‘jayli | 47,0 | 6,2 | 77,8 |
| Qorao‘zak | 11,2 | 1,5 | 91,4 |
| Chimboy | 43,1 | 5,7 | 104,6 |
| Kegeyli | 14,6 | 1,9 | 122,0 |
| Shumanay | 11,9 | 1,6 | 83,1 |
| Qo‘ng‘irot | 48,2 | 6,4 | 128,3 |
| Ellikqal'a | 35,8 | 4,8 | 69,3 |
| Mo‘ynoq | 19,0 | 2,5 | 156,4 |
| Nukus sh. | 137,9 | 18,4 | 82,0 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 5143,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 62,0 % ni tashkil etdi.

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 8297,4 | 100 | 107,2 |
| Amudaryo | 264,3 | 3,2 | 107,7 |
| Beruniy | 177,6 | 2,1 | 106,7 |
| Bo‘zatov | 67,4 | 0,8 | 115,3 |
| Qonliko‘l | 217,9 | 2,6 | 120,5 |
| Qorao‘zak | 86,4 | 1,1 | 90,4 |
| Kegeyli | 146,2 | 1,8 | 98,4 |
| Qo‘ng‘irot | 359,4 | 4,3 | 110,4 |
| Mo‘ynoq | 73,8 | 0,9 | 101,5 |
| Nukus t. | 127,9 | 1,5 | 98,7 |
| Taxiatosh | 1022,3 | 12,3 | 126,6 |
| Taxtako‘pir | 95,1 | 1,2 | 100,8 |
| To‘rtko‘l | 194,7 | 2,4 | 105,2 |
| Xo‘jayli | 174,0 | 2,1 | 77,5 |
| Chimboy | 126,7 | 1,5 | 131,2 |
| Shumanay | 81,3 | 1,0 | 100,7 |
| Ellikqal'a | 200,4 | 2,4 | 102,8 |
| Nukus sh. | 4882,0 | 58,8 | 114,5 |

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*




Respublika sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining o‘sishshini, Chimboy (2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 131,2 %), Taxiatosh (126,6 %), Qonliko‘l (120,5 %), Bo‘zatov (115,3 %) tumanlarida hamda Nukus shahrida (114,5 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o‘sganligi bilan izohlashimiz mumkin.

## Qoraqalpog'iston Respublikasi jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 58,8 % ), Taxiatosh (12,3 %), Qo'ng'irot (4,3 %), Amudaryo (3,2 %), Qonliko'l (2,6 %), To'rtko'l hamda Ellikqal'a (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkich esa %), Bo'zatov (0,8 %), Mo'ynoq (0,9 %), Shumanay(1,0 %) hamda Qorao'zak (1,1 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (15021,7 ming so'm) va Taxiatosh tumanida 13667,1 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (4303,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 637,8 ming so'm bo'lgani holda, Taxtako'pir tumanida 1423,9 ming so'mni, Qonliko'l tumanida 1343,0 ming so'mni,Taxiatosh tumanida 1301,0 ming so'mni va Nukus shahrida 852,8 ming so'mni tashkil etdi.

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 4303,9 | 637,8 |
| Nukus t. | 2498,2 | 419,3 |
| Amudaryo | 1308,2 | 378,2 |
| Taxiatosh | 13667,1 | 1301,0 |
| Beruniy | 910,9 | 456,2 |
| Taxtako‘pir | 2353,7 | 1423,9 |
| Bo‘zatov | 3093,1 | 314,3 |
| To‘rtko‘l | 892,1 | 475,4 |
| Qonliko‘l | 4206,2 | 1343,0 |
| Xo‘jayli | 1398,7 | 691,1 |
| Qorao‘zak | 1621,4 | 441,0 |
| Chimboy | 1116,8 | 591,1 |
| Kegeyli | 1997,0 | 473,8 |
| Shumanay | 1437,0 | 327,9 |
| Qo‘ng‘irot | 2726,6 | 649,4 |
| Ellikqal'a | 1234,2 | 578,3 |
| Mo‘ynoq | 2270,6 | 656,3 |
| Nukus sh. | 15021,7 | 852,8 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2021- yilning yanvar-iyun oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1556,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mo‘ynoq va Shumanay tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Kegeyli (89,6 %) hamda Xo‘jayli (78,4 %) tumanlarida kuzatildi.






Respublikamiz shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Nukus shahriga (7,0 %), Qonliko‘l (13,2 %), Taxiatosh (10,1 %) hamda Bo‘zatov (15,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda respublikada 3146 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1577 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 50,1 %) Nukus shahriga 656 tasi (20,8 %), To‘rtko‘l 345 tasi (11,0 %), Beruniy 289 tasi (9,2 %), Amudaryo 287 tasi (9,1 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




2021- yil yanvar-iyun oylarida respublikada 460 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 270 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 58,7 %) Nukus shahrida 86 tasi (18,7 %), Amudaryo 57 tasi (12,4 %), Ellikqal'a 54 tasi (11,7 %), To‘rtko‘l 37 tasi (8,1 %), Beruniy 36 tasi (7,8 %), tumanlarida tashkil etildi.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 42 ta loyiha boʻyicha 243,9 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 6,3 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021- yil yanvar-iyun oylarida 152 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 190,0 % ni tashkil etti. Shu bilan birga, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining oʻsganligi kuzatildi.

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining asosiy koʻrsatkichlari

| | **2020- yil yanvar- iyun** | **2021- yil yanvar- iyun** |
|---|---|---|
| Loyihalar soni, *birlik* | ***17*** | ***42*** |
| Korxonalar soni, *birlik* | ***15*** | ***36*** |
| Ishlab chiqarish hajmi, *mlrd. soʻm* | ***55,2*** | ***243,9*** |
| Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, *mln. AQSh dollar* | ***0,2*** | ***6,3*** |
| Yaratilgan yangi ish oʻrinlari, *birlik* | ***80*** | ***152*** |